

QIYOSIY ADABIYOTNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nishonova Difuza Xomidovna

Tashkent institute of textile and light industry

E-mailnishonovadilfuza8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qiyosiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari va adabiyotshunoslikda xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, adabiy-badiiy ta’sir vositalarini, xalqaro turli milliy adabiy hodisalarning o‘xshash yoki mushtarak jihatlarini va uning ta’sirida vujudga kelgan o‘ziga xos tomonlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyot, adabiy aloqalar, uslub, tendentsiya, komparativizm, tipologik o‘xshashlik, syujet, metodologiya.

Abstract: This article analyzes the specific features of comparative literature and international literary relations and relations in literary studies, the means of literary and artistic influence, the similar or common aspects of international and national literary phenomena, and the specific aspects that have arisen under its influence.

Key words: literary studies, comparative literature, literary relations, style, trend, comparativism, typological similarity, plot, methodology.

Qiyosiy adabiyot jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar tarkibi masalalarini o‘zaro bog‘liqlikda, tarixiy – genetik tahlil usuliga tayangan holda o‘rganadi va u, asosan, dunyo adabiyotida mavjud bo‘lgan adabiy jarayonlar, turli oqimlar va maktablar, shuningdek xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, adabiy-badiiy ta’sir vositalarini, xalqaro turli milliy adabiy hodisalarning o‘xshash yoki mushtarak jihatlarini yohud mazkur mushtaraklik ta’sirida vujudga kelgan o‘ziga xos tomonlarini, badiiy tarjima muammolarini tadqiq etib, umumlashtirib, nazariy xulosalar beradi.

Qiyosiy adabiyotning tekshiruv obyekti, jahon adabiyoti yohud milliy adabiyotlarga oid ta’kidlangan masalalardan tashqari, milliy adabiyotlarning alohida

olingan yirik vakillari ijodlari yoki, (ular ijodi na'munasi bo'lgan) alohida bir asar ham bo'lishi mumkin. Hatto alohida bir adabiy janr yoki muayyan adabiy uslub, adabiy yo'nalish, yoki adabiy tur ham qiyosiy adabiyotshunoslikning tahlil obyektiga kiritilishi mumkin.

Dunyoda mavjud bo'lgan turli adabiyotlar boshdan kechirgan ijtimoiy- tarixiy jarayonlarning o'zaro o'xshashligi o'sha milliy adabiyotlarda paydo bo'lgan adabiy hodisalarning ham o'xshashligini ta'min etgan. Shuning uchun qiyosiy adabiyot milliy adabiy hodisalarni millatlarning ijtimoiy – ma'daniy taraqqiyoti fonida va ular orasidagi ma'daniy – adabiy aloqalar bilan bog'liq holda tekshiradi. Ayni shu jihatdan, ayrim hollarda, qiyosiy adabiyot “Qiyosiy tarixiy adabiyotshunoslik” deb ham yuritiladi va u jahon adabiyoti tarixi fanining tarkibiy qismi hisoblanadi (N.I. Konrad). Bundan tashqari, u xalqaro maydonda ko'proq “komparativizm”, yoki “komparativistika” deb ham ataladi. Tabiiyki, ko'plab qarashlar “Qiyosiy adabiyotshunoslik”ning fan sifatida shakllanishi tarixi qanday kechganligini bilishga undaydi.

Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikning dastlabki belgilari nemis olimlari I.G.Gerder, J.Benfey, ingliz olimi J.Denlon va rus olimi F.I.Buslayev asarlarida namoyon bo'lgan bo'lsada, uning asosiy printsiplari yevropalik X.M.Poznett va rossiyalik A.N.Veselovskiy asarlarida to'laqonli ta'rif - tavsifga ega bo'ladi. Chunonchi, qiyosiy adabiyotshunoslik, asosan, fan sifatida XIX asrda Rossiyada paydo bo'lgan bo'lib, unga, asosan, Sankt – Peterburg universiteti professori, akademik Aleksandr Nikolayevich Veselovskiy (1838) asos solgan. Veselovskiy o'zining 1870 – 1906 yillarda yaratgan “ Tarixiy poetika” degan yirik asari bilan jahon adabiyotshunosligi tarixida “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining asoschisi degan faxrli maqomga erishgan olimdir. Nemis idealistik falsafasi ta'sirida shakllangan.

A.N. Veselovskiy bu sohada o'zidan juda katta ilmiy me'ros qoldirdi. Zotan, uning qalamiga 26 jildlik kitoblar va 280 ta ilmiy maqolalar jahon qiyosiy adabiyotshunosligining asl g'oyasi, o'zak tomiri va tamal asosini tashkil etdi. Veselovskiyning ta'sirida 1914 – 1918 yillarga kelib, G'arbiy

Yevropada xalqaro adabi aloqalar va munosabatlar muammolarini o‘rganishga nisbatan katta qiziqish tug‘ildi. Natijada, fransuz olimlari F. Baldansperje, hamda Pol van Tigemlarning ilmiy faoliyati, sai – harakatlari bu ulkan mintaqada ham maxsus fan sifatida “Qiyosiy adabiyotshunoslik” ning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu ikkala fransuz olimi tashabbusi bilan 1921- yildan e’tiboran “Revue de literature compararee” (“Qiyosiy adabiyotshunoslikka oid jurnal”) deb nomlangan ilmiy nashr joriy etilib, unga ilova tarzida ko‘plab monografiyalar ham nashr etildi va bular natijasi o‘laroq G‘arbiy Yevropa komparativizmining keyingi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shdi. Keyinchalik 1939 – 45- yillarga kelib esa, AQSH adabiyotlarini qiyosiy o‘rganishning yirik markaziga aylandi. V. Fridrix, R. Uellek va boshqalar tashabbusi bilan adabiyotlarni qiyosiy o‘rganadigan yirik nufuzli ikkita ko‘p seryali “Qiyosiy adabiyot” va “Adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish” degan jurnallar tashkil etildi va ularda bu soha taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan jiddiy tadqiqotlar e’lon etila boshlandi.

1963-yildan boshlab qiyosiy adabiyotshunoslikning jugrofiyasi yana ham kengayib, endilikda bu jabhada Germaniya, Qanada, hamda Fransiya peshqadamlik qila boshladi. Shu davrlarda K. Vays boshchiligida bir qancha nemis olimlari ham yirik tadqiqotlar yaratdilar. 1966-yildan boshlab esa, bu sohadagi ishlarni ommalashtirishga ixtisoslashtirilgan va Germaniyada chop etila boshlagan “Arkadiya” jurnali adabiyotshunoslikning bu jabhasi rivojida katta rol o‘ynadi. Dunyo olimlari tashabbusi bilan 1955- yildan boshlab Xalqaro Qiyosiy Adabiyotshunoslik Assotsiatsiasi tashkil etildi va Parij uning markazi qilib belgilandi. Xuddi shuningdek, ilmning bu jabhasida venger olimlari I.Sheter, T. Klanitsam, G. Vayda kabi olimlar-ning ilmiy izlanishlari ham muayyan ahamiyat kasb etdi.

Rossiyada o‘tgan asrning 50-60- yillari qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida bu tarmoq tarixida qoladigan katta izlanishlar vujudga keldi. XX asr rus adabiyotshunoslaridan N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Propp, I.G. Neupokoyeva va boshqalar, G‘arbiy Yevropa va Amerika kompara-tivistlaridan farqli ravishda, adabiyotlar va folklorni qiyosiy o‘rganishda o‘xshashliklarni nafaqat syujet yoki motivlarning oddiy ko‘chishi sifatida, balki tipologik hodisalar sifatida

izohlaydilar. Ular yaratgan nazariy umumlashmalar asosida metodologik jihatdan yangilanish jarayoniga yuz burib, endilikda jahon qiyosiy adabiyotshunosligi o‘zining asosiy mavzu yo‘nalishi va dolzarb muammolari had – hududini mintaqaviy muammolar mundarijasi doirasida belgilash tamoilini to‘la – to‘kis qabul etdi. Lo‘nda qilib aytganda, N.I. Konrad va V.M. Jirmunskiylar qiyosiy adabiyot-shunoslik olamida xalqaro adabiy munosabatlar jarayonida “mafkuraviy import va eksport ehtiyoji muqarrarligi” qonuniyatni yaratdilar.

O‘zbek olimlaridan F.Sulaymonova, B.Sarimsoqov, K.Imomov, H.Homidiy, M.Jo‘rayev va boshqalarlarning asarlarida u yoki bu darajada qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik unsurlari uchraydi. Shuni aytish kerakki, adabiy voqea-hodisalarning o‘xshashligi, bir tomondan, xalqlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o‘xshashlikka, ikkinchi tomondan esa, ular o‘rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarga asoslanadi; shunga muvofiq ravishda adabiy jarayonning tipologik o‘xshashliklari hamda adabiy aloqalar va ta’sirlari farqlanadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik turli milliy adabiyotlarni bir-biriga qiyoslab o‘rganadi, umumiy qonuniyatlarni ochadi. Adabiyotning millati bo‘lmaydi, milliy xususiyati bo‘ladi.

Xullas, qiyosiy adabiyotshunoslik ikki va undan ortiq xalq va mamlakat adabiyotini solishtirib o‘rganish orqali ular o‘rtasidagi farq va mutanosiblik, shuningdek, ulardan har birining jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan hissasi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sotimov U. Qiyosiy adabiyotshunosligi haqida ayrim mulohazalar. Roman – German filologiyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik va tilshunoslikning zamonaviy muammolari Respublika ilmiy – amaliy anjumani. Urganch, “Til gulshani” to‘plami, 2010, 72- bet.
2. Аникин Г. В. История английской литературы. М.: Наука, 1975. 260 с.
3. Boboyev .T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O‘zbekiston, 2002. 277 b.